

## **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti amalga oshirilgan milliylikka targ‘ib qiluvchi tadbirlar to‘g‘risida**

### **MA'LUMOT**

Universitetda “**Milliy liboslar xaftasi**” sifatida e‘lon qilinib, haftalik doirasida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilandi.

“Milliy liboslar haftasi” – bu universitetda tashkil etiladigan an’anaviy tadbir bo‘lib, unda talaba-yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an’analarimiz bilan tanishtirish maqsadida ko‘plab tadbirlar o‘tkazildi. Bu haftalik tadbirni universitetning yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi, xotin-qizlar maslahat kengashi, universitet yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti va barcha fakultetlar birgalikda tashkil etishdi.

“Milliy liboslar haftaligi”ning asosiy maqsadi – yoshlarni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni hurmat qilishga, milliy liboslarimizni kiyishga undash, shuningdek, o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini anglashga yordam berishdir. Bu tadbirda talabalar milliy kiyimlarda qatnashib, o‘zlarining o‘ziga xosligini namoyon etishlari, shuningdek, milliy liboslar va ularning ramziy ma’nosi haqida bilim olishlari mumkin.

Tadbirlar doirasida milliy an’analariga oid tanlovlar, ko‘rgazmalar, ma’ruzalar o‘tkazilmoqda. Bu haftalik nafaqat talabalarga milliy liboslarimizni namoyish qilish imkoniyatini yaratadi, balki ular o‘z kelajagini milliy madaniyatga hurmat bilan qurishga, tariximizni o‘rganishga, urf-odatlarimizni asrab-avaylashga ilhom beradi.

“Milliy qadriyatlar” mavzusidagi tadbirlar esa yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, yurtimizning boy madaniy merosini anglash va uni zamonaviy hayotga tatbiq etish uchun tashkil etiladi. Shuningdek, bu tadbirlar orqali yoshlarning o‘z xalqining qadriyatlariga bo‘lgan hurmatini yanada oshirishga erishiladi.

<https://t.me/UzSWLU/29337>

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/32647](https://t.me/uzswlu_mmb/32647)

<https://t.me/UzSWLU/29359>

<https://t.me/rgffaculty/4602>

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/32674](https://t.me/uzswlu_mmb/32674)

<https://t.me/UzSWLU/30006>

[https://t.me/first\\_faculty\\_official/3375](https://t.me/first_faculty_official/3375)

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/32673](https://t.me/uzswlu_mmb/32673)

[https://t.me/second\\_faculty\\_official/1459](https://t.me/second_faculty_official/1459)

[https://t.me/xalqarojurnalistika\\_fakulteti/2755](https://t.me/xalqarojurnalistika_fakulteti/2755)

<https://t.me/thirdEnglishfaculty/12463>

[https://t.me/second\\_faculty\\_official/1578](https://t.me/second_faculty_official/1578)

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/32685](https://t.me/uzswlu_mmb/32685)

<https://t.me/thirdEnglishfaculty/12452>

[https://t.me/first\\_faculty\\_official/3573](https://t.me/first_faculty_official/3573)

<https://t.me/englishphilologyfaculty/3670>

Shu bilan birga, “Milliy liboslar haftaligi” universitetimizda o‘tkaziladigan muhim tadbirlar qatoriga kirib, yoshlarimizni milliy ruhda tarbiyalash, ularga o‘z tarixini va madaniyatini sevisish, hurmat qilishni o‘rgatish uchun ulkan imkoniyat yaratadi.